



7- laboratoriya ishi

Mis (II)-xlorid va kaliy yodid eritmalarining elektrolizi

1. U-simon nayning $\frac{3}{4}$ hajmigacha mis (II)-xlorid eritmasidan quying. Elektrolizyorning bir tomoniga mis, ikkinchi tomoniga grafit elektrod tushiring. Grafit elektrod (katod)ni manfiy ishorali, mis elektrod (anod)ni esa o'zgarmas tokning musbat ishorali manbasiga ulang. Katodda sof mis ajralayotganligini kuzating. Shu sharoitda anodda nima hosil bo'lishi mumkin? Qanday gaz ajraladi? Elektrodlarning qutblarini o'zgartirib, yana tok manbasiga ulang. Anoddagi mis qanday o'zgarishga uchraydi? Katodda qanday modda ajraladi?
2. Elektrolizyorga 2 M li kaliy yodid eritmasidan quying. Nay ichiga grafit elektrodlarni tushiring va ularni o'zgarmas tok manbasiga ulang. Katodda vodorod pufakchalari hosil bo'lishini, anodda esa yod ajralishini kuzating. Tok oqimini to'xtatib, elektrodlarni chiqarib oling. So'ngra U-simon nayning yod ajralgan tomoniga 1—2 tomchi yangi tayyorlangan kraxmal eritmasidan tomizing. Nima kuzatiladi?